

CHIZMACHILIK FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY PEDAGOGIK MAHORATINI INNOVATSION METODLAR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Choriyev Olmosbek Baxriddin o‘g‘li
Andijon davlat universiteti 1-bosqich doktoranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chizmachilik fani o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik mahoratlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metoodlar yordamida rivojlantirishga oid zarur tavsiya va ko‘rsatmalar berib o‘tilgan. Bo‘lajak o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni pedagogik metod va vositalar yordamida tahlil qilish va ta’lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini amaliyotga keng tatbiq qilish masalalari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik mahorat, ko‘rgazmali vositalar, metod, fazoviy tasavvur, grafik chizmalar, o‘quv faoliyati.

Annotation: In this article, the necessary recommendations and instructions are given for the development of professional pedagogical skills of drawing teachers with the help of modern pedagogical technologies and innovative methods. and analysis with the help of tools and the issues of wide implementation of the goals, tasks, forms and methods of education are covered in detail.

Keywords: Pedagogical skill, visual aids, method, spatial imagination, graphic drawings, educational activity.

Аннотация: В данной статье даны необходимые рекомендации и указания по развитию профессиональных педагогических навыков учителей рисования с помощью современных педагогических технологий и инновационных методов и анализа с помощью инструментов и вопросы широкой реализации целей, задач. Подробно освещены формы и методы обучения.

Ключевые слова: Педагогическое мастерство, наглядные пособия, метод, пространственное воображение, графические рисунки, учебная деятельность

O‘qituvchilik kasbi sharaflil va shu o‘rinda mashaqqatli kasb turlaridan biri hisoblanadi. Bu kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik mahoratni egallagan bo‘lishi zarur. O‘qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Har bir pedagog ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalanadi. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarflab katta natijalarga erishishi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘jizalar yaratishi, ijodkorlik xususiyatlariga ega bo‘lishi talab etiladi. Jamiyatimizning ma’naviy yangilanishi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, demokratik huquqiy davlat qurish, kadrlar tayyorlash milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi. “Inson uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir”-deb aytgan edi I.A. Karimov.

Pedagogik faoliyatining mazmuni asosan yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun layoqatli, barcha aqliy va axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan, maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslarning alohida faoliyatiga aytiladi. Xo‘sh pedagogik mahorat nima va uning chizmachilik fanlarini o‘qitishda qanday foydasi tegadi?

Ushbu fanni o‘qitishda qanday innovatsion pedagogik metodlardan foydalanamiz va bu bizga qanday natijalar beradi? Ushbu maqolada bu savollarga etarlicha javob topishga harakat qilamiz. Ma’lumki pedagogik mahorat-izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir. Chizmachilik fani ham murakkab fan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchidan ziyalik, zukkolik va ilmiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirganlik, pedagogik texnika va pedagogik etikadan xabardor bo‘lishni taqazo etadi. V.A. Suxomlinskiy o‘zining “Chin insonni qanday tarbiyalash kerak” degan asarida “O‘qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo‘lmaydi. To‘quvchi bir soatdan keyin o‘z ishining hosilini ko‘radi, po‘lat erituvchi bir necha soatdan so‘ng olovda metall oqimidan shodlanadi - bu uning orzusining yuksak cho‘qqisi; yer haydovchi, don sepuvchi g‘allakor bir necha oydan keyin dalada o‘stirgan boshloqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O‘qituvchi esa o‘z ijodining mahsulini ko‘rish uchun yillab mehnat qilishi kerak” degan fikrlarni bayon etadi. Pedagogik mahorat bir qator kompetentlardan tarkib topadi. U pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy bilimlarni, ya’ni kasbiy bilimlar, kasbiy faoliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o‘z ichiga oladi [3, 18]. Pedagogik mahoratning asosiy negizi bu kasbga oid bilimlarni puxta o‘zlashtirishdan iboratdir. Chizmachilik darslarida o‘qituvchilarning grafik savodxonligini oshirish maqsadida innovatsion metod sifatida dars jarayonida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish metodini ko‘rib chiqamiz. Chizmalarni o‘qituvchiga qo‘lda to‘g‘ri bajarishga o‘rgatib, ularning chuqur bilim olishlari uchun zarur bo‘lgan ijobiy sifatlarni shakllantirib, rivojlantirgan holda grafik savodxonlikka ilk qadam qo‘yish imkoniyatini yaratishimiz zarur. Mana shu tarzda o‘qituvchilarda bugungi kun talabi darajasida sifatli bilim berish va ularning grafik tayyorgarligini oshirish kabi dolzarb vazifani bajarishga erishamiz.

Albatta bunda ko‘rgazmali qo‘llanmalarining o‘rni ham katta [1, 12]. Ayniqsa, o‘qitish vositalarining metodik tizimdagi tarkibiy qismlari, ko‘rgazmali qo‘llanmalarining o‘quv faoliyatiga ta’siri va ko‘rgazmali qurollarning ta’lim jarayonidagi o‘rni dars jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishdagi ahamiyati bilan bog‘liq. Ko‘rgazmali qurollarda ko‘rsatmalilikning quyidagi turlaridan foydalaniladi: 1) tabiiy ko‘rgazmalilik - o‘qituvchilarni mavjud ob’ektlar: o‘simliklar, binolar, mashinalar va hokazolar bilan tanishtirishni taqozo etadi. 2) tasvirli ko‘rgazmalilik - mavjud olamni va borliqdagi narsalarni aks etishi bilan. Bu: fotosurat, rasm, animatsiyali, multimedial kinofilmlarni ko‘rsatishdan iborat. 3) Ovozli ko‘rgazmalilik - tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish - magnitafon, ovozli kino. 4) Ramziy va grafik ko‘rgazmalilik - xaritalar, rejalar, sxemalar, chizma va diagrammalar.

Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan ramziy ko‘rinishda aks ettirishi sababli fazoviy tasavvurni ancha rivojlantiradi [2, 43]. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko‘rgazmali qo‘llanmalarni namoyish etishda unga puxta tayyorgarlik ko‘rmasdan yoki ularni noto‘g‘ri tanlash faqat zarar keltiradi. Ko‘rgazmalilik tamoyili boshqa fanlarni o‘qitishdagi kabi chizmachilikni o‘qitish jarayonida ham asosiy va muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tamoyil qadim zamonlardan beri qo‘llanilib kelinayotgan eng samarali o‘qitish tamoyillaridan biridir. O‘qituvchining bayoni, uning tushuntirishi aniq, ravshan obrazlarni o‘z ichiga olishi, o‘rganilayotgan savollarning mohiyatini ko‘rgazmali tasvirlar

yordamida ishonchli misollar bilan mustahkamlab borilishi kerak. Chizmani grafik tahlil qilishda mavzuni takrorlashda, o‘quvchilardan so‘rashda, xullas, barcha hollarda to‘la ko‘rgazmalilik bo‘lishi lozim. Kompyuterdagi rasmlar bilan bir qatorda o‘qitishda ko‘rgazmalilik jadvallar, sxemalar, filmlar, multimediali videoproektorlar orqali namoyish etiladi. Ta’limning ko‘rgazmaliligi – mavhum tushunchalarni egallashda bilish uchun asos hisoblanadi [4,61]. Bu erda “ko‘rgazmalilik” tushunchasi buyumlar (masalan, mashina detallari va boshqalar)ning bevosita o‘zlari emas, balki ularning grafik tasvirlari bilan bog‘liqligini qayd qilish zarur. Har qanday tasvir, chizma buyumni his qiladigan ko‘rish organlarimiz orqali fahmlanadi.

Shuning uchun ko‘rgazmalilik inson miyasida chizmada ob’ekt belgilarini modellashtirish natijasida hosil bo‘ladigan ko‘rinish obrazi deb qabul qilinadi. Bu tamoyil o‘quvchilar chizmachilik fanini yaxshi o‘zlashtirishlariga xizmat qiladi. Y.A. Komenskiy ta’limda barcha sezgi organlariga tayanish lozimligini ta’kidlangan: ko‘rinadiganini – ko‘rish, eshitiladiganini - eshitish, hid taratayotganini – hidlash, his qilish mumkin bo‘lganini - his qilish. Hozirgi sharoitda chizmachilik darslarida bu tamoyil faqatgina jadval, plakat, dinamik qo‘llanmalar, modellar, detallar, uzellar kabilarning o‘zigina emas balki qo‘shimcha ravishda ko‘p sonli audiovizual vositalar (turli proeksion-apparatlar, kino, televedeniya) hamda turli xil boshqa turdagi imkoniyatlar (displaylar, grafik amallarni chizadigan apparatlar)dan keng foydalanib kelinmoqda. Chizmachilikda ko‘rgazmalilikdan foydalanish me’yorida qo‘llanilishi asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarda fazoviy tasavvur va fazoviy obrazli fikrlashning rivojlanishiga zarar etkazmasligi ham kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Mavlonova, D. Abdurahimova. Pedagogik mahorat (o‘quv qo‘llanma) - T; 2009y.
2. E. Ro‘ziyev, A. O. Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi. - T; 2010 y.
3. N. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. - T; 2012y.
4. J. Y. Yodgorov, T. R. Sobirov, N. J. Yodgorov. Geometrik va proyeksion chizmachilik. - T; 2008y.